

BUXORODA AN'ANAVIY TA'LIM TIZIMI VA TARBIYADA JADID

MARIFATPARVARLARINING O'RNI

Axmadov Olimjon Shodmonovich

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası p.f.f.d.(PhD), dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14684728>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri-XX asr 30 yillarida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: an'anaviy ta'lim tizimi, jadid marifatparvarlari, maktabxonalar, zamonaviy ta'lim, tarixiy tajriba.

ТРАДИЦИОННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРЕ И МЕСТО НОВЫХ

МАРИФАТАРИАН В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье научно исследовано на основе источников и литературы по проблемам образования и воспитания в Бухаре в конце XIX и первой четверти XX века.

Ключевые слова: традиционная система образования, современная интеллигенция, школа, современное образование, исторический опыт.

THE TRADITIONAL EDUCATION SYSTEM IN BUKHARA AND THE ROLE OF

NEW MENTALISTS IN EDUCATION

Abstract. In the following article the sources and literature related with the education-upbringing in Bukhara in the end of 19th first quarter of the 20th century is scientifically analyzed.

Keywords: traditional education system, new intellectuals, schools, modern education, historical experience.

Buxoroda an'anaviy ta'lim tizimi va tarbiyada jadid marifatparvarlarining manbalari va adabiyotlarining tahlil qish orqali tarixiy tajribadan zamonaviy ta'limda foydalanish.

Vakfnomalarda yozilishicha, maktabxonalar xom va pishiq g'ishtdan bino kilingan.

Maktabxona binosi odatda bir xonadan iborat bulib, bolalar buyra yoki gilam (tushakcha, sholcha) ustida o'tirishgan. Maktabning xonalari kichik, tor bulib, yoruglik tushmaydigan qorong'i, o'quvchilar o'tiradigan joy esa nam va zah bo'lgan. O'g'il bolalar maktabxonalarida maschid imomi, muazzini yoki madrasani tugatgan shaxs muallimlik qilgan.

Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta'riflaydi: "Maktab shunday joydirki, bir muallimi bor, uni "maktabdor" deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o'n yilgacha zaruriy xat-savodlarini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib, dars o'qiy boshlaydilar[1].

Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxorodagi maktabxonaning ko‘rinishi kuyidagicha bo‘lgan: “Maktab torgina bir xonadan (xujradan) iborat bulib, uning ikki eshigi bor, buning biri bir tabaqali va eshik kupincha yopik turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo‘lib uch gaz (1 gaz-62-64 sm) bo‘yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldida domla (maktabdor)ning o‘tiradigan joyi bor. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog‘oz bilan qoplangan) va qog‘ozga qor-yomg‘irdan saqlash uchun zig‘ir moyi surtilgan edi.

Shuningdek, maktabning derazasidan darsxonaga hech bir yorug‘lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipga yakinlashgan joyida ikki tomondan xam bir-biriga ro‘paramaro‘para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo‘lsa xam, bulardan kiradigan yorug‘lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi. Bu hujraning kengligi o‘n olti gaz murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustidan o‘tkazilib to‘rtta sinch tortilgan va bu bilan xujra to‘qqiz bo‘lakka bo‘lingan, go‘yo maktabxonaning ichida to‘kkiz oxur paydo bo‘lgan edi. Eshik oldidagi oxurchada bolalarning kavushlari turardi, darcha oldidagi oxurchada bo‘lsa domla va kolgan yetti oxurchada esa bolalar o‘tirardi”[2].

Sadriddin Ayniy ushbu eski maktablardan birida ta‘lim olar ekan, o‘quvchilar muallim taxtachaga yozib bergan saboqlarni sinf xonasini boshlariga ko‘tarib, shovqun solib takrorlashlari kerakligini qayd etadi. S.Ayniy o‘zi o‘qigan maktabda o‘quvchilar yoshi xususiyatlariga qarab ajratilmaganligi, 7 yashar bolalar bilan 12-13 yashar bolalar birga o‘qitilishi haqida ma‘lumot bergan. Muallim o‘quvchini savodini chiqarish uchun 6-7 yil o‘qitgan. Eski maktabdagi ta‘lim jarayoni haqida keyinchalik Buxoro matbuotida: “Kichik bir hujra ichida 50-55 bola domlaning gapiga qaraganda bolalarni birtadan yoniga chiqarib olib, usuli qadim bilan o‘qitar ekan. Bunday usul bilan 55 bolaga 55 marta dars berish mumkinmi? - deb so‘ralganida domulla 4-5 nafariga dars beraman-u, qolganiga osmondan farishtalar tushib o‘qitadur, javobini bergan”[3] – degan ma‘lumot keltirilgan.

Yoxud, Abdurauf Fitrat bu tipdagi maktablarni “maktabi qadim” ularda dars berish usulini esa “tahsili qadim” – deb ataydi. O‘quvchilar muallimdan kaltak va haqoratlar bilan har kuni ikki ta‘lim oladilar, saboq o‘zlashtirilishi va tushunarli bo‘lishiga hech kim parvo qilmaydi, kabi fikrlari 1909 yilda yozilgan “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi” asarida bayon qilinadi. O‘quvchilar o‘tiradigan xona yarim qorong‘u, zax hamda hayvonlar yashaydigan joylarga o‘xshaydi”[4] – deb yozgandi. Albatta, uning fikrida ancha bo‘rttirishlar sezilsada, aslida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida maschitlar qoshidagi maktablarga e‘tibor susaygandi.

Shunga qaramay boshlangich maktablar Eski Buxoro shahrida va boshka shaxarlarda, shuningdek, qishloqlarda mavjud bo‘lib, Buxoro shahridagi 22 guzarning har birida maktabxonasi bo‘lgan.

Ma'lumki shariat ahkomlariga ko'ra, ilm o'rganish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobi berish kechirilmas gunoh hisoblangan, o'kishga kelgan har bir bolaning qaysi ijtimoiy toifadan bo'lishi va o'kish uchun qancha haq to'lay olishidan qat'iy nazar, o'kituvchilar zimmasiga ularni har qanday e'tirozsiz o'qitish vazifasi yuklatilgan. Chunki, "har bir musulmonning bilim olishi ham qarz, ham farz" ligi haqidagi hadisi-sharif sunnat hisoblangan.

REFERENCES

1. Абдурауф Фитрат Ҳиндистонда бир фаранги ила Бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси. Танланган асарлар; 1 жилд. Т.: Маънавият; 2000. - Б. 50.
2. Айний С. Эски мактаб // Асарлар. VIII томлик. – Тошкент. Бадиий адабиёт. 1965. IV жилд. - Б. 139-140.
3. Фаришталар ўқитар экан // Озод Бухоро; 160-сон, 1924 йил. 3 ноябр.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1- жилд: Т.: Маънавият; 2000. – Б.84.
5. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – S. 1224-1227.
6. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Ahmadov O. BUXORO AMIRLIGIDA YaNGI USUL MAKTABLARI FAOLIYATI. YUTUQLARI VA MUAMMOLAR //SENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Hayitov, Shodmon Akhmadovich. "THE TURKISTANI MEDIA IN THE TURKISH REPUBLIC (1920-1960)." *Scientific reports of Bukhara State University* 3.3 (2020): 249-254.
9. Hayitov, Jakhongir Shodmonovich. "Spread of new types of corps in Turkistan continent at the end of the 19th-at the beginning of the 20th centurie." *European Science Review* 1.11-12 (2018): 24-26.
10. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.

11. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
12. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
13. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG 'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 88-91.
14. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY SALOHİYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 374-377.
15. Zoir o'g'li R. Z., Asror o'g'li A. A. QADIMGI XORAZM: O 'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHIDA //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 378-382.
16. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.
17. To'Rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
18. Ismailovich, T. A. (2021). Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 2(3), 47-52.
19. To'rayev, A. (2023). O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 36(36).
20. To'rayev, A. (2023). БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
21. To'rayev, A. (2023). English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
22. To'rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG 'LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
23. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.

24. To'Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 1165-1170.
25. To'rayev A. A ЎЎУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Хорижиймақола //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.
26. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
27. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
28. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
29. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
30. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.